



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna- i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шаминаур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Raqamli iqtisodiyot
Digital economy
Цифровая экономика



INNOVATION TECHNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH

Yusupova Munisa Abduqahhor qizi

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПУТЁМ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Юсупова Муниса

INCREASING EFFICIENCY THROUGH THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Yusupova Munisa Abduqahhor qizi

Received: June 1, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali tashkilot va korxonalarda ish samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida raqamlashtirish jarayonlari, avtomatlashtirish tizimlari va zamonaviy boshqaruv usullari tahlil qilingan. Texnologik yangilanishlarning mehnat unumdorligiga, xarajatlarni kamaytirish va sifat yaxshilashga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida ochib berilgan. O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsiyalarni qo'llash tajribasi va istiqbollari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, samaradorlik, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, mehnat unumdorligi, iqtisodiy o'sish, boshqaruv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности деятельности организаций и предприятий посредством внедрения инновационных технологий. В ходе исследования анализируются процессы цифровизации, системы автоматизации и современные методы управления. На основе статистических данных раскрывается влияние технологических обновлений на производительность труда, снижение затрат и улучшение качества. Изложены опыт и перспективы применения инноваций в экономике Узбекистана.

Ключевые слова: инновационная технология, эффективность, цифровизация, автоматизация, производительность труда, экономический рост, управление.

Abstract: This article examines the issues of increasing the efficiency of organizations and enterprises through the introduction of innovative technologies. The research analyzes digitalization processes, automation systems, and modern management methods. Based on statistical data, the impact of technological updates on labor productivity, cost reduction, and quality improvement is revealed. The experience and prospects of applying innovations in the Uzbek economy are also described.

Keywords: innovative technology, efficiency, digitalization, automation, labor productivity, economic growth, management.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqobat kuchayib, texnologik rivojlanish sur'ati tezlashib bormoqda. Har bir davlat va korxona o'z faoliyatini yangilash, xarajatlarni qisqartirish va mahsulot yoki xizmat sifatini oshirish yo'llarini izlamoqda. Aynan mana shu sharoitda innovatsion texnologiyalar zamonaviy

iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.¹

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda «Raqamli O'zbekiston — 2030» dasturi, innovatsiya markazlarini tashkil etish va texnoparklarni kengaytirish bo'yicha muhim qarorlar

¹Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934. — B. 74–94. Muallif innovatsiyani iqtisodiy o'sishning

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb ta'riflab, «ijodiy buzilish» kontseptsiyasini ishlab chiqdi.

Qarshi davlat texnika universiteti



qabul qilingan.² Biroq, amaliyotda innovatsiyalarni joriy etish jarayoni hali ham bir qator muammolarni o'z ichiga olmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali tashkilot va korxonalarda samaradorlikni oshirishning nazariy asoslarini ko'rib chiqish, amaliy tajribalarni tahlil qilish hamda bu boradagi asosiy yo'nalishlarni belgilashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil, solishtirma o'rganish, monografik va tizimli yondashuvlar qo'llanilgan. Maqolada jahon va mahalliy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek, real korxonalar tajribasidan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsiya nazariyasining asoslarini iqtisodchi Jozef Shumpeter yaratgan. U o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» asarida innovatsiyani iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ta'riflagan hamda «ijodiy buzilish» tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan.³ Uning fikricha, har qanday yangilik eskilikni yo'q qilib, yangi imkoniyatlar yaratadi.

Piter Druker o'zining «Innovatsiya va tadbirkorlik» asarida innovatsiyani maqsadli va tashkil etilgan faoliyat deb ta'riflagan.⁴ Druker innovatsiyalarni nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va tashkiliy jihatdan ham ko'rib chiqib, ularni muvaffaqiyatli boshqarishning amaliy usullarini ishlab chiqqan.

Raqamli iqtisodiyot sohasida Klaus Shvabning «To'rtinchi sanoat inqilobi» asari alohida o'rin tutadi.⁵ Shvab zamonaviy texnologiyalar — sun'iy idrok, robotlashtirish, narsalar interneti va boshqa innovatsiyalar birgalikda iqtisodiy tizimlarni tubdan o'zgartirish qobiliyatiga ega ekanligini asoslaydi.

Mehnat unumdorligi va texnologiya o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishda Robert Solovning texnologik o'sish modeli muhim ahamiyat kasb etadi.⁶ Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy manbasi texnologik taraqqiyotdir.

O'zbekiston sharoitida innovatsion rivojlanish masalalarini mahalliy olimlar Alimov R.X. va Xasanov U.N. o'rgangan.⁷ Ularning tadqiqotlari milliy iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi.

Avtomatlashtirish va sun'iy idrokni tashkiliy samaradorlik bilan bog'liq holda o'rgangan Erik Brynjolfsson va Endryu Mak'Fi o'zlarining «Ikkinchi mashina asri» asarida texnologik taraqqiyot mehnat bozori va mahsuldorlikka qanday ta'sir qilishini keng ko'lamda tahlil qilganlar.⁸

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda innovatsion texnologiyalar bir necha mezon asosida tasniflanadi. Mohiyatan olganda, innovatsiyalar to'rt asosiy guruhga bo'linadi: mahsulot innovatsiyalari (yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar), jarayon innovatsiyalari (ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtirish), bozor innovatsiyalari (yangi bozorlarga chiqish usullari) va tashkiliy innovatsiyalar (boshqaruv tizimlarini yangilash). Har bir guruh o'z navbatida korxona samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Raqamlashtirish bugungi iqtisodiyotda eng muhim innovatsion yo'nalish hisoblanadi. Bu jarayon qog'oz hujjatlarni elektron shaklga o'tkazishdan boshlanib, sun'iy idrokka asoslangan boshqaruv tizimlarini joriy etishgacha bo'lgan keng ko'lamni qamrab oladi.⁹ Raqamlashtirish nafaqat ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash xarajatlarini kamaytiradi, balki qaror qabul qilish sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Avtomatlashtirish tizimlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida insonning takrorlanuvchi mehnatini mashinalarga o'tkazishni nazarda tutadi. Jahon amaliyotida robotlashtirish, dasturiy ta'minot yordamida jarayonlarni avtomatlashtirish keng qo'llanilmoqda. Bu esa nafaqat xarajatlarni qisqartiradi, balki xato va nuqsonlar sonini ham keskin kamaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etgan korxonalar qisqa muddatda yuqori xarajatlarga duch kelishi mumkin. Biroq, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ular raqobatchilarga nisbatan ancha yuqori samaradorlikka erishadi. Bu holat «innovatsion paradoks» sifatida ham tadqiq etilgan.

Jahon Iqtisodiy Forumining ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy idrok va avtomatlashtirish texnologiyalarini joriy etgan kompaniyalarda mehnat unumdorligi o'rtacha 20–35 foizga oshadi. Ayni vaqtda, ishlab chiqarish xarajatlari 15–25 foizga kamayadi. Bu ko'rsatkichlar turli sohalarida farq qilishi mumkin bo'lsa-da, umumiy tendentsiya bir xil yo'nalishni ko'rsatadi.

Samaradorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar: birinchidan, vaqt tejash — avtomatlashtirilgan jarayonlar odatda bir necha barobar tez bajariladi; ikkinchidan, aniqlik oshishi — kompyuter tizimlari insoniy xatolarga yo'l qo'ymaydi; uchinchidan, 24 soat uzluksiz ishlash imkoniyati; to'rtinchidan, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish.¹⁰

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6083-son Farmoni «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. Toshkent, 2020. Rasmiy matn: lex.uz saytida mavjud.

³Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. New York: Harper & Brothers, 1942. — B. 81–86. Ushbu asarda «Creative Destruction» — ijodiy buzilish nazariyasi batafsil bayon etilgan.

⁴Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York: Harper & Row, 1985. — B. 19–35. Druker innovatsiyani «resurslarning yangi imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilishi» sifatida ta'riflagan.

⁵Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2016. — B. 11–26. Shvab to'rtinchi sanoat inqilobini jismoniy, raqamli va biologik dunyolarning uyg'unlashuvi sifatida tavsiflaydi.

⁶Solow R.M. Technical Change and the Aggregate Production Function // The Review of Economics and Statistics. — 1957. — Vol. 39, No 3. — B. 312–320.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, AQSh iqtisodiy o'sishining 87,5 foizi texnologik omil bilan bog'liq.

⁷Alimov R.X., Xasanov U.N. O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish: muammolar va yechimlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — B. 47–63.

⁸Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. New York: W.W. Norton & Company, 2014. — B. 90–112.

⁹Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. New York: McGraw-Hill, 2014. — B. 5–18.

¹⁰Porter M.E., Heppelmann J.E. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition // Harvard Business Review. — 2014. — No 11. — B. 64–88.

O'zbekistonda innovatsion texnologiyalar joriy etilishining asosiy ko'rsatkichlari (2018–2023) [10]

Ko'rsatkich	Davr	Qiymat	Manba
Elektron tijorat hajmi	2018–2023	3 barobarga oshgan	[stat.uz]
IT eksport hajmi	2023	400 mln. dollardan ortiq	[MITT]
Texnopark va innovatsiya markazlari	2023-yilga	15 tadan ortiq	[IT Park]
Startaplar soni	2023	1500 dan ziyod	[IT Park]
Bank sektorida shikoyatlar kamayishi	2022–2023	40 foizga	[O'z.Markaziy banki]
Xizmat ko'rsatish vaqti qisqarishi	2022–2023	3 barobarga	[O'z.Markaziy banki]

O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, raqamli texnologiyalarni joriy etgan mahalliy korxonalarda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati sezilarli darajada yaxshilangan. Masalan, bank sektorida raqamli xizmatlar joriy etilgach, mijoz shikoyatlari 40 foizga kamaygan, xizmat ko'rsatish vaqti esa 3 barobarga qisqargan. Bu natijalar innovatsiyalarning iqtisodiy samara berishi uchun strategik yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida «Raqamli O'zbekiston — 2030» dasturi doirasida mamlakat iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga asosiy poydevor yaratildi. Ushbu dastur ko'p sonli sohalarda — ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, moliya va davlat boshqaruv tizimlarida keng ko'lami o'zgarishlarni nazarda tutadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018–2023 yillar orasida O'zbekistonda elektron tijorat hajmi 3 barobarga oshgan. Axborot texnologiyalari sohasidagi eksport hajmi ham yildan yilga o'sib bormoqda — 2023-yilda bu ko'rsatkich 400 million dollardan oshdi. Texnopark va innovatsiya markazlari soni esa 15 tadan ortdi va ularda 1500 dan ziyod startap faoliyat yuritmoqda.

Shunga qaramay, bir qator muammolar hali ham mavjud. Birinchidan, yuqori malakali texnik mutaxassislar yetishmovchiligi sezilmoqda — bu muammo iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir qilmoqda. Ikkinchidan, korxonalarining innovatsiyalarga sarflaydigan mablag'lari hali ham talab darajasida emas. Uchinchidan, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur bo'lgan huquqiy va moliyaviy mexanizmlar to'liq shakllanmagan.

Korxonalar innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida bir necha asosiy to'siqlarga duch keladi. Bu to'siqlarni to'g'ri aniqlash va ularga qarshi samarali choralar ko'rish innovatsion jarayonning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Birinchi to'siq — moliyaviy cheklovlar. Ko'pchilik, ayniqsa kichik va o'rta korxonalar, yangi texnologiyalarni sotib olish va joriy etish uchun yetarli mablag' ajrata olmaydi. Buning yechi sifatida davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, loyiha moliyalashtirish va ventchur

kapitalini jalb qilish mexanizmlari ham rivojlantirilishi lozim.

Ikkinchi to'siq — xodimlarning malaka darajasi. Ko'pincha yangi texnologiyalar joriy etilganda, xodimlar ulardan to'liq va samarali foydalana olmaydi. Bu masalani hal etish uchun muntazam malaka oshirish kurslari, o'qitish dasturlari va ichki bilim almashish platformalari muhim rol o'ynaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, xodimlarni oldindan tayyorlash innovatsion loyiha muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omilga aylanadi.

Uchinchi to'siq — tashkiliy madaniyat va o'zgarishlarga qarshilik. Xodimlarning yangiliklarga toqatsizligi innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatsiz tugashining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun rahbariyat tomonidan aniq yo'nalish berish, xodimlarni jarayonga jalb qilish va ijobiy natijalarni rag'batlantirish muhimdir. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarni joriy etishda ichki kommunikatsiya va ishonchni shakllantirish ayniqsa muhimdir.

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorlik oshirishning eng asosiy yo'li hisoblanadi. Lekin bu jarayon o'z-o'zicha amalga oshmaydi — u tizimli yondashuvni, strategik rejalashtirish va doimiy monitoring olib borishni taqozo etadi.

Dunyo tajribasi va O'zbekistondagi holat solishtirilganda, bir necha muhim farqlar ko'zga tashlanadi. Rivojlangan mamlakatlar, masalan, Janubiy Koreya, Singapur va Finlandiyada innovatsion texnologiyalarni joriy etish milliy strategiya darajasida amalga oshiriladi va unga YaIMning 3–4 foizi ajratiladi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich hali ancha past bo'lsada, so'nggi yillarda sezilarli o'sish kuzatilmoqda.

Innovatsiyalarning samaradorligi faqat texnologik omilga bog'liq emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyani muvaffaqiyatli joriy etgan tashkilotlarda inson kapitaliga sarmoya, tashkiliy madaniyat va rahbarlik sifati ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, «texnologiya + odam + tashkilot» uchburchagi innovatsion samaradorlikning asosiy modeli sifatida qarashimiz lozim.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Birinchidan, innovatsion texnologiyalar zamonaviy iqtisodiyotda raqobat qobiliyatini saqlab qolishning zaruriy shartidir. Texnologik jihatdan orqada qolgan korxona yoki davlat uzoq muddatda raqobatda yutqazishi muqarrar.

Ikkinchidan, innovatsiyalarni joriy etishning samaradorligi ko'p jihatdan tayyorgarlik bosqichining sifatiga bog'liq. Texnologiyani joriy etishdan oldin korxonaning tayyor ekanligini baholash, xodimlarni tayyorlash va jarayonlarni qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, O'zbekiston sharoitida innovatsiyalarni keng joriy etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi zarur. Davlat qulay huquqiy muhit yaratishi, xususiy sektor esa moliyaviy va texnik resurslarni taqdim etishi lozim.

To'rtinchidan, innovatsion samaradorlik faqat moliyaviy natijalar bilan o'lchanmaydi. Xodimlar salomatligi, atrof-muhit va ijtimoiy ta'sir ham uzoq muddatli samaradorlikning tarkibiy qismidir.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz: innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish; oliy ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash; korxonalarda innovatsion madaniyatni shakllantirishga oid maxsus dasturlarni joriy etish; innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun ventur kapital bozorini rivojlantirish va maxsus innovatsion fondlar tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish masalasi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega. Ushbu sohada tizimli va izchil harakat qilgan davlatlar va korxonalar kelajakda raqobatda albatta g'olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1]. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. — Cambridge: Harvard University Press, 1934. — 255 b.

[2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6083-son Farmoni «Raqamli

O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. — Toshkent, 2020.

[3]. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. — New York: Harper & Brothers, 1942. — 381 b.

[4]. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. — New York: Harper & Row, 1985. — 277 b.

[5]. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. — Geneva: World Economic Forum, 2016. — 192 b.

[6]. Solow R.M. Technical Change and the Aggregate Production Function // The Review of Economics and Statistics. — 1957. — Vol. 39, No 3. — B. 312–320.

[7]. Alimov R.X., Xasanov U.N. O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish: muammolar va yechimlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 184 b.

[8]. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. — New York: W.W. Norton & Company, 2014. — 320 b.

[9]. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 2014. — 368 b.

[10]. Porter M.E., Heppelmann J.E. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition // Harvard Business Review. — 2014. — No 11. — B. 64–88.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Yusupova Munira Abduqahhor qizi — Qarshi xalqaro universiteti, «Iqtisodiyot va muhandislik» kafedrasida magistranti / Юсупова Мунира Абдукаххор кизи — Каршинский международный университет, магистрант кафедры «Экономика и инженерия» / Yusupova Munira Abduqahhor qizi — Karshi International University, Master's student, Department of Economics and Engineering

E-mail: yusupovam@gmail.com

ORCID: 0009-0006-8339-7497



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz